



SCIENTIFIC BASIS OF GEOGRAPHICAL STUDY OF SUBURBAN ECONOMY

Zulkhumar T. Abdalova

Candidate of Geography Sciences, Associate Professor

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Tashkent, Uzbekistan*

Imongali N. Islamov

Senior lecturer

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Urban agglomeration, large suburban economy, agrarian policy, food security, transport infrastructure, agricultural specialization, composition of agricultural territorial sectors.

Received: 02.12.22

Accepted: 04.12.22

Published: 06.12.22

Abstract: This article involves the economic and geographical theoretical foundations of socio-economic conditions that affect the formation and development of the suburban economy. The socio-economic, natural and environmental factors of development and specialization of the regional and sectoral structure of suburban agriculture are revealed. The level of engineering and technical support of the region, the density of the transport network, modes of transport, the electric power system and the important role and importance of various communications in the integration of the regional network into agriculture around a large and central city were studied.

SHAHAR ATROFI XO‘JALIGINI GEOGRAFIK O‘RGANISHNING ILMIY ASOSLARI

Zulkumar T. Abdalova

Geografiya fanlari nomzodi, dotsent

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Toshkent, O‘zbekiston*

Imongali N. Islamov

Katta o‘qituvchi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Toshkent, O‘zbekiston*

МАQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Shahar aglomeratsiyasi, yirik shahar atrofi xududi xo‘jaligi, agrar siyosat, oziq-ovqat xavfsizligi, transport infrastrukturasi, qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish, qishloq xo‘jaligi xududiy-tarmoqlar tarkibi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada shahar atrofi xo‘jaligining shakllanishiga va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning iqtisodiy-geografik jihatdan nazariy asoslari yoritilgan. Shahar atrofi qishloq xo‘jaligining xududiy va tarmoqlar tarkibining rivojlanishiga, ixtisoslashishiga ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va ekologik omillar ochib berilgan. Yirik shahar atrofida qishloq xo‘jaligining xududiy-tarmoqlar tarkibi va markaziy shahar o‘rtasidagi integratsiyasida xududning texnik-muhandislik ta’minlanganlik darajasi, transport to‘rining zichligi, transport turlari, elektrenergetika tizimi va turli kommunikatsiyalarning muhim roli va ahamiyati o‘rganilgan.

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ПРИГОРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА

Зулхумар Т. Абдалова

кандидат географических наук, доцент

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Ташкент, Узбекистан

Имонгали Н. Исламов

старший преподаватель

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Городская агломерация, большое загородное хозяйство, аграрная политика, Продовольственная безопасность, транспортная инфраструктура, сельскохозяйственная специализация, состав сельскохозяйственных территориальных отраслей.

Аннотация: В данной статье рассматриваются экономико-географические теоретические основы социально-экономических условий, влияющих на формирование и развитие пригородного хозяйства. Выявлены социально-экономические, природные и экологические факторы развития и специализации региональной и отраслевой структуры пригородного сельского хозяйства. Были изучены уровень инженерно-технического обеспечения региона, плотность транспортной сети, виды транспорта, электроэнергетическая система и важная роль и значение различных коммуникаций в объединении региональной сети в состав сельского хозяйства вокруг крупного и центрального города.

KIRISH

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligining shakllanishi va rivojlanishi, aglomeratsiyalar ta’sirida vujudga keladi. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda va megapolis aholisiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlar yetkazishga bo‘lgan ob’ektiv zaruriyat, shahar atrofi xududlarini rivojlanishiga va uning ixtisoslashishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Yirik shahar va uning atrofi o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, xo‘jalik, madaniy-maishiy turdagilari aloqalari vujudga keladi. Hozirgi davrda dunyoda ildam sanoatlashish jarayoni natijasida urbanizatsiya va murakkab shahar aglomeratsiyalarining shakllari vujudga kelmoqda. Milliy iqtisodiyotning xududiy tarkibini takomillashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mintaqalar o‘rtasida nomutanosiblikni bartaraf etish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Shu jihatdan, shahar atrofi xududlarining loyhalashtirish, muxandisslik, iqtisodiy, ekologik va rekreatsiya nuqtai nazardan iqtisodiy-geografik jihatda o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otadi.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, shahar aglomeratsiyalari mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda “o‘sish qutblarni” rolini bajarib, yirik shahar va uning atrofida, iqtisodiy, ijtimoiy, xo‘jalik, madaniy-maishiy turdagilari shakllantiradi. G.M. Lapponing qo‘yidagi fikri etiborga loyiq: «Shahar o‘zini o‘rab turgan hudud bilan ijtimoiy-iqtisodiy yaxlit bir butun. Vaqt o‘tishi shahar va uni o‘rab turgan rayonning o‘sishi va rivojlanishi natijasida yana ham kengayib boradi» [1]. Shahar atrofi zonasi shahar va qishloqlarning xususiyatlarini birlashtiruvchi murakkab ob’ekt bo‘lib, bu xududiy tizimni o‘rtasida shakllangan demografik, xo‘jalik va ijtimoiy jihatdan o‘zaro aloqadorlik masalalari iqtisodiy geografik jihatdan kompleks tahlil etish ilmiy ahamiyatga ega.


Shahar atrofi qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga normativ-huquqiy, tabiiy-geografik, transport, ijtimoiy-iqtisodiy, fan texnika taraqqiyoti omillar ta’sir ko‘rsatadi (Rasm 1).

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligi mamlakat agrar sohasining tarkibiy qismi bo‘lib, agrar ishlab chiqarishni barqaror rivojlanishi va raqobat muhitini yaratish maqsadida olib borilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston davlat mustaqiliga erishilgan kunlaridan boshlab, iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo‘lgan, agrar sohani islohatlashtirish, bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish va institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlarida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishini rivojlantirish, agrar ishlab chiqarish tarmoqlarining samaradorligini oshirish, qishloq aholisi daromadlarini va turmush sifatini yaxshilash, olib borilayotgan siyosatda o‘z ifodasini topmoqda. Mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni bartaraf etishda, xududlarni barqoror rivojlantirishni ta’minlashda, qishloq

joylarini farovonligini oshirishda davlatning tarkibiy qismi bo‘lgan agrar siyosatning roli va ahamiyati muhimdir.

1- Rasm

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.

Davlat tomonidan olib borilayotgan agrar siyosatning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillari qishloq xo‘jaligi va xududlarini barqaror rivojlanishini ta’minalash, agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, qishloq aholisining bandligini va aholi turmush farovonligini oshirish va iqtisodiy va ijtimoiy muommolarni hal etishga qaratilgan. Binobarin, olib borilayotgan agrar siyosatning pirovard maqsadida, muayyan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolarni hal qilish bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligini hududiy- tarmoq tarkibini takomillashtirish masalalari ham alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Prezident qarorida, oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqishda, o‘zlusiz ta’minalash va narxlar keskin o‘zgarishining oldini olish maqsadida intervention xaridlar tizimi bosqichma-bosqich joriy etitish, boshqoli don xarid qilish va sotishda erkin raqobatni ta’minalaydigan bozor mexanizmlarini joriy etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash uchun davlat buyurtmasi tizimidan davlat zaxirasidan foydalanishga o‘tish bo‘yicha mexanizmni ishlab chiqish, sohada davlat ishtirokini kamaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yo‘nalishida nazarda tutiladi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazish, uni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha klaster tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan [2].

Bugungi kunga kelib qishloq xo‘jaligida yangi boshqaruva shakli va xududiy tashkil etishda-klaster tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda, “klaster-ma’lum mahsulot va xizmatlarga ixtisoslashgan, o‘zaro bog‘langan va bir birini texnologik jihatdan to‘ldiradigan korxonalarining geografik jihatdan to‘plangan guruhidir. Klasterlar geografik jihatdan to‘plangan guruh bo‘lib, bir-biri bilan korxonalar xom-ashyoni yetishtirish, texnologik qayta ishlash, tayyor mahsulot etib chiqarish, transportirovkasi bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar, firmalar, shuningdek ularning faoliyati bilan bog‘liq tashkilotlar (masalan ilmiy-tadqiqot, standarlashtirish agentligi, shuningdek, savdo birlashmalari), raqobatlashgan, ammo ayni paytda yetakchi bo‘lgan mu’ayan sohalardagi birgalikda faoliyat yuritadigan korxona va tashkilotlarning xududiy majmuasini tashkil etadi.

Milliy, mintaqaviy va poytaxt atrofi iqtisodiyotini rivojlanishida va xududiy tarkibini takomillashishida klasterlarning o‘rni va ahamiyati katta [3]. Respublika iqtisodiyotning, ayni davrda, paxtachilik, yengil sanoat, to‘qimachilik sohalari bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligini mahsulotlarini boshqa tarmoqlarida rivojlanish ham ko‘zda tutilmoqda. Agrar klasterlarning yaratilishi, turli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, texnologik ishlov berish, saqlash, qadoqlash, tashish va boshqa jarayonlar yirik shahar va uning atrofi o‘rtasidagi xo‘jalik integratsiyasini rivojlanishiga olib keladi.

Shahar atrofida joylashgan yirik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlanishida tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati katta. Xo‘jalik ichki zahiralarida va salohiyatidan foydalangan holda, qishloq ho‘jaligi rivojlanishini sifat jihatdan yangi bosqichga olib kelishida, bozor iqtisodiyoti mexanizmini keng ko‘llanishida, qishloq hududlarining iqtisodiy taraqqiy etishi va farovonligini oshirishda tadbirkorlik muhim ahamiyatga ega. “Iqtisodiyot va sanoat vazirligining muvofiqlashtiruvi ostida amalga oshirilayotgan qishloqlarni rivojlantirish dasturlari, asosan, hududiy iqtisodiy nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, yirik shahar markazlari foydasi uchun, qishloq aholisining kichik bir qismi - fermerlar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanadigan boshqa tadbirkorlar sektori tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi” [4].

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligining xududiy joylashishiga, rivojlanishiga va ixtisoslashishiga turli tabiiy va ekologik omillar va sharoitlar ta’sir ko‘rsatadi.

Agrar sohaning xududiy tarkibi va uning ixtisoslashuviga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishiga va hosildorligi uchun zarur bo‘lgan vegetatsiya davrini belgilovchi agroqlim resurslari, issiqlik, namlik, yer-suv resurslari, yog‘ingarchilik miqdoriga, ob-havo sharoitiga, relef, harorat ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, “yirik shaharlarning qishloq xo‘jaligiga ta’siri tabiiy sharoitning ta’siri bilan taqqoslanadi” [5].

Albatta iqlim va yer resurslari qishloq xo‘jaligini rivojlanishi uchun juda zarur. Ayniqsa, xududni qishloq xo‘jaligi ixtisoslashishi uchun zarur bo‘lgan va yirik megapolis aholisi uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda yer resurslari bilan ta’milanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Unumdor tuproqga ega bo‘lgan yer maydonlarining cheklanganligi, bir xil mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni megapolislardan uzoqlashuviga yoki yaqinlashishiga olib keladi” [6]. Xududni yer resurslari bilan yetarli ta’milanishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi rivojlanishiga va yirik shahar aholisini iste’mol mahsulotlari bilan ta’minalashga olib keladi.

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligining sut-sut mahsulotlari va go‘sht mahsulotlari yo‘nalishiga ega bo‘lgan yaylov chorvachiligining tabiiy sharoitga bog‘liq. Suvli ozuqaga boy bo‘lgan yem-xashak yetishtirishda, yoz davrlararda yaylovlarni namgarchilagini oshirish, sut mahsulotligrini oshirishga imkon beradi. Odatda, sut chorvachiligi intensiv dehqonchilik xududlarida joylashadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazishda ekologik omilning ahamiyati muhimdir. Yirik shaharlar atrofi yerlarining sanoat chiqindilari, radioaktiv elementlar va og‘ir metallar bilan ifloslanishi shahar atrofi yerlarining ekologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida, antropogen ta’sir ostida qishloq xo‘jaligi yerlarining ulushi kamayadi va aholini oziq-ovkat mahsulotlari bilan ta’milanish darajasi pasayadi.

Shahar atrofi zonalari yirik shaharlardan chiqqan chiqindilarni utilizatsiya qilinishida yordam beradi. Yirik shaharlar atrofi xududi xo‘jaligi uchun foydali chiqindilarni yetkazib

beriladi, oziq-ovqat sanoati go'sht, sut, non, qandolat, shuningdek umumiy ovqatlanish korxonalaridan chiqqan oziq-ovqat qoldiqlari chorvachilik uchun yem sifatida ishlatsa, yoqilg'i sanoati chiqindilari issiq suv, bug', turli chiqindi gazlar issiqhonalarini isitishda foydalaniadi [7].

Shahar atrofi qishloq xo'jaligini shaklanishi va rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga, aholi manzilgohlari hududiy tizimlarining rivojlanish xususiyatlariga, shahar aglomeratsiyasiga, transport to'rining rivojlanishiga, mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, tebranma migratsiyaga va boshqa omillarga bevosita bog'liq. Shahar atrofi shahar va qishloq o'rtasida joylashgan, muhim ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish vazifalarini bajarushi hududdir. Shahar atrofini, shartli tarzda, shaharga tortiluvchi hudud yoki qishloqni shaharga tomon tortuvchi hudud sifatida alohida ajratib baholash mumkin. Shu nuqtai nazardan shahar atrofida uning markazida joylashgan shahar va qishloq joylariga xos xususiyatlar o'zining ifodasini topgan. Shahar yoki qishloq joylariga xos iqtisodiy jihatlarni shahar atrofi xo'jaligidagi ifodasi ularning mavqeい, maqomi bilan belgilanadi. Ya'ni, shahar qancha katta bo'lsa, unda shahar atrofi hududida shaharga xos jihatlar ko'proq o'zining ifodasini topadi va aksincha shahar o'rtacha yoki ayniqsa kichik bo'lsa, unda shahar atrofi hududida qishloq xo'jaligiga xos jihatlar ko'proq namoyon bo'ladi.

Shaharlar agrar sohaga ta'sir ko'rsatadi. Shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ehtiyoji, aglomeratsiya yadrosi va uning atrof xududlarini yaxlit xududiy majmua sifatida boshqariladi. Shuningdek, shahar atrofi xo'jaligining ixtisoslashuvi aholining talab va ehtiyoji asosida o'zgarib turadi. Shahar aglomeratsiyalarida aholi yirik konsentratsiyasi mahalliy oziq-ovqat bazasini samaradorligini oshirish zaruriyatini oshiradi, bu maqsadga erishish o'z navbatida, shahar atrofi zonasida qishloq xo'jaligini rivojlanishining yuqori intensiv shakllari va uslublari bo'lgan sug'oriladigan dehqonchilik, parnik-issiqxonalar xo'jaligi, mexanizatsiyalashgan yem-xashak tayyorlash majmualari, broyler parrandachiligin va xokazolarni rivojlantirishni taqoza etadi. Avvalambor, atrof qishloq xo'jaligi tarmoqlarini xududiy tashkil etilishida, agrar ishlab chiqarishni intensiv rivojlanishida, yagona xo'jalik tizimining shakllanishida shahar "karkas" rolini bajaradi[8].

Shu bilan birga, shahar aholi sonining ko'payishi qishloq xo'jaligida mavsumiy ish uchun, mehnat resurslarini jalb etish imkonini yaratadi.

Shahar ahonisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi, atrof xududlari qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishi tarmoqlarining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Yirik shahar ahonisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash shahar atrofi qishloq xo'jaligini asosiy vazifasi bo'lib, mahsulot yetishtirishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarda samarali tashkil etishda ko'pgina sohalarning birgalikdagi o'zaro aloqadorligini ta'minlanishi talab etiladi. Ayniqsa, shahar va shahar atrofi hududidagi sanoat, agrar, savdo taqsimot va

infratuzilma faoliyatlarini turlarini shaharni oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun integratsiyalaydi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini samaradorliini oshirishda, yer-suv resurslaridan oqilona foydalanishda, mahsulot hosildorligini oshirishda intensiv yo‘nalishga ega bo‘lgan fan-texnika va zamonaviy innovatsiyalarni qo‘llash agrar sohaning barqaror rivojlanishini va aholi farovonligini oshirishini ta’minlaydi. Shu bois, axborot-tahlil, intellektual va boshqaruv salohiyatiga ega bo‘lgan aglomeratsiya markazlari, ilg‘or fantalab texnologiyalarni va boshqarishning yangi shakllarini yaratishda ahamiyati katta.

Shahar atrofi qishloq xo‘jalingining rivojlanishi, shakllanishi, uning xududiy-tarmoqlar tarkibi va markaziy shahar o‘rtasidagi integratsiyasida transport infrastrukturasi va xududning texnik-muhandislik ta’minlanganlik darjasи, transport to‘rining zichligi, transport turlari, elektrenergetika tizimi va turli kommunikatsiyalar muhim rol o‘ynaydi.

Yirik shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash shahar atrofi qishloq xo‘jaligini asosiy vazifasi hisoblanadi, biroq, mahsulot yetishtirishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarda, samarali tashkil etishda ko‘pgina sohalarning birgalikdagi o‘zaro aloqadorligini ta’minlanishi talab etiladi.

Shahar atrofi agrasanoat majmuasi ixtisoslashuv, konsentratsiya, kooperatsiya jarayonlari rivojlantirish natijasida qishloq xo‘jaligini sanoat, savdo-sotiq va xizmat ko‘rsatish korxonalar o‘rtasidagi integratsiyasini yaratadi. N. N. Kolosovskiy shahar va qishloq xo‘jaligi o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqib, ushbu o‘zaro ta’sirni rivojlantirishning roli aniq bo‘lgan joy shahar atrofi xududi, deb ko‘rsatgan [9].

XX asrning so‘nggi yillari va XXI asrning dastlabki davrida shahar atrofi hududida joylashgan xo‘jaliklarning rivojlanishi, ixtisos-lashuvining o‘zgarishini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yana ham kuchaydi. Buning asosiy sababilaridan biri dunyoda davlat umumxalq mulkiga asoslangan rejali iqtisodiyotdan taraqqiyotning bozor modelini tanlab olgan mamlakatlar guruhining vujudga kelishi bilan bog‘lanadi. Jahan qishloq xo‘jaligini ixtisoslashganligini o‘zida ifoda etgan xaritalarda va boshqa shunga o‘xshash manbalarda shahar, ayniqsa yirik shahar atrofi qishloq xo‘jaligi odatda ana shu hududga xos ixtisoslashuvdan farq qilishligini ko‘rsatmoqda. Bunda is’temol, aniqroq qilib aytganda iqtisodiy omilning roli beqiyosdir. Ixtisoslashuvning asosini sabzavot ekinlari va kartoshka yetishtirish tashkil etgan shahar atrofi qishloq xo‘jaligi korxonalari hududlardagi boshqa korxonalardan farq qiladi. Farq ixtisoslashuvdan tashqari ishlab chiqarishning konsentratsiyalashganligi, uni intensiv tarzda o‘sib borishligi, boshqaruvning tashkiliy shakllarini yuqori darajada rivojlanganligi va boshqa shu kabi belgilarga ham asoslanadi.

Yirik shahar atrofi qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish va xududiy joylashtirish nafaqat aholiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘z vaqtida yetkazib berish uchun sharoit yaratib berish

uchun katta ahamiyatga ega, shuningdek xuduning yer fondi, tabiiy resurs, transport vositalari, sanoat va kommunal xo‘jalik chiqindilarini qayta ishlash va foydalanishda katta ahamiyatga ega. “Ixtisoslashuv har qanday ishlab chiqarishning ob’ektiv zaruriyatidir, uning samaradorligini oshirish va mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasidir” [10].

Shahar aholisini yuqori sifatlari va yangi oziq-ovqat mahsulotlar bilan ta’minlashda, tez buziladigan va tashilishi qiyin bo‘lgan mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va transport xarajatlarini kamaytirish, mahsulot narxini pasaytirish maqsadida, shahar atrofi qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuviga sabab bo‘ladi. «Yirik shahar aholisining kam transportabel, yangi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talablarning o‘sib borishi, ularga hududdan yaqin bo‘lgan atrof rayonlarda intensiv tipdagisi qishloq xo‘jalik korxonalarini shakllantirishni taqozo etmoqda.

«Bunda xo‘jalik tiplari ixtisoslashuvini shakllanishga shaharlarning kattaligi, ularni tabiat zonalari va rayonlariga nisbatan joylashganligi, hududni o‘zlashtirganlik darajasi ayniqsa katta ta’sir ko‘rsatadi.

Aholining soni bir milliondan ortiq bo‘lgan shaharlar atrofida turli xil tipdagisi yuqori intensiv xo‘jaliklar shakllanmoqda. Ular alohida tipdagisi qishloq xo‘jaligi rayonlariga ajratilmoqda” [11].

Shahar atrofi xududlari qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashuv nazariyasini Yogan Tyunen “Alohida davlat, uning qishloq xo‘jaligi va milliy iqtisodiyotga munosabati” (“Izolirovannoje gosudarstvo v yego otnoshenii k selskomu xozyaystvu”) deb nomlangan ilmiy asarida ko‘rsatib bergan. Shaharga yaqinlik omilini shahar atrofi tovar qishloq xo‘jaligini ixtisoslashuvini shakllanishiga ta’sirini isbotlab bergan [12].

Tyunen tadqiqoti, yirik shahar markazi va shahar atrofi o‘rtasidagi masofa qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuviga va uning intensiv rivojlanish darajasini olib berashga qaratilgan. Yogan Tyunen qishloq xo‘jaligi yerlarida barcha tadqiqotlarini olib borgan, aslida, shahar aholi punktlarida differensial ijara qiymatini birinchi bo‘lib ko‘rsatgan. Tyunen shahar atrofidagi xududlarni uchta zonaga bo‘ladi, shahar markaziga yaqin halqa suburbanizatsiya zonasini, o‘rtaligani shahar atrofi zonasini va uzoq halqa esa, pereferiya, migratsiya zonasini deb atalgan. Har bir ajratilgan halqa, markaziy shahar iste’mol bozoriga ma’lum bir qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga yetishtirishga ixtisoslashishi belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, ajratilgan halqalarning funksional ahamiyatidan kelib chiqqan holda yerning qiymati ham turlicha ifodalangan. Bu model, yirik shaharlar atrofida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashuvi nazariyasini ta’limotini yaratadi.

Shahar atrofi xududining birinchi halqasi bog‘dorchilik va sabzavot tarmog‘i ixtisoslashadi, bunda tez buziladigan, o‘zoq masofaga tashishga bardosh bera olmaydigan, og‘ir va katta xajmli mahsulotlarni shaharga yaqin xududlarda yetishtirishga mo‘ljallangan. Shuningdek, transport tashish xarajati yuqori va qimmat, tez ayniydigan sut-go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarishga

ixtisoslashgan sut-go'sht chorvachiligi xo'jaliklarini joylashtirish ham maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, "shaharga o'zoqdan olib keladigan mahsulotlarni kartoshka, karam, sholq'om, ko'katlar va boshqalarni" birinchi xalqa doirasida yetishtirilishi kerak [12].

Binobarin, hozirgi fan-texnika taraqqiyoti davrida, shahar atrofi qishloq xo'jalignining ixtisoslashuvida va xududiy joylashuvida, mahsulotning transport tashuvchanligi past va tez buziladigan xususiyati yetakchi omil sifatida qaraladi. Biroq, yirik shahar chegaralarining o'sib borishi, uning meva-sabzavot va sut mahsulotlarini yetkazib berishga imkoniyatlarini kamaytirib bormoqda. Shuning uchun ham, agrar yangi ishlab chiqarish texnologiyalarning qo'llanilishi va yer unumdorligida samarali foydalishi sharoitida, shahar atrofi chegaralarini o'zgarib turish xususiyatiga xos.

XULOSA

Yuqoridagi keltirilgan fikrlar va takliflar asosida qo'yidagilarni xulosa sifatida keltirish mumkin.

1. Shahar atrofi zonasi shahar va qishloqlarning xususiyatlarini birlashtiruvchi murakkab ob'ekt bo'lib, bu xududiy tizimni o'rtasida shakllangan demografik, xo'jalik, va ijtimoiy jihatdan o'zaro aloqadorlik masalalari iqtisodiy geografik jihatdan kompleks tahlil etish ilmiy ahamiyatga ega.
2. Shahar atrofi qishloq xo'jalignining rivojlanishiga bevosita va bilvosita normativ-huquqiy, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va fan-texnika taraqqiyot omillari ta'sir ko'rsatadi.
3. Davlat tomonidan olib borilayotgan agrar islohotlar, pirovard maqsadida, muayyan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolarni hal qilish bilan bir qatorda qishloq xo'jalignini hududiy-tarmoq tarkibini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.
4. Shahar atrofi qishloq xo'jalignining xududiy joylashishiga, rivojlanishiga va ixtisoslashishiga turli tabiiy va ekologik omillar va sharoitlar ta'sir ko'rsatadi.
5. Shahar atrofi qishloq xo'jalignini shaklanishi va rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga, aholi manzilgohlari hududiy tizimlarining rivojlanish xususiyatlariga, shahar aglomeratsiyasiga, transport to'rining rivojlanishiga, mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, tebranma migratsiyaga va boshqa omillarga bevosita bog'liq.
6. Shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi, atrof xududlari qishloq xo'jalignini ishlab chiqarishi tarmoqlarining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.
7. Shahar atrofi qishloq xo'jalignining rivojlanishi, shakllanishi va uning xududiy-tarmoqlar tarkibi va markaziy shahar o'rtasidagi integratsiyasida transport infrastrukturasi va xududning texnik-muhandislik ta'minlanganlik darajasi, transport to'rining zichligi, transport turlari, elektrenergetika tizimi va turli kommunikatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лаппо Г.М. города на пути в будущее М: Мысль 1987, с 247
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2020.
3. Портер М. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Вильямс, 2006. – с. 206.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853 сонли «Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» ги Фармони
5. Нефедова Т.Г. За чертой больших и средних городов. Разноликая Россия//География, № 6, 8/2007.
6. Сулимов В.В. Стратегия развития пригородного сельского хозяйства (на материалах аграрного комплекса мегаполиса - г. Екатеринбург): Автореф. дис. .канд.э.н. / В.В. Сулимов. - Екатеринбург, 2003. - 24 с.
7. Минеев В.А. Экономические основы пригородного сельского хозяйства / Минеев В.А. - М.: Экономиздат, 1962. - 323 с.
8. Дмитренко Е.А. Развитие инфраструктуры пригородного агропромышленного комплекса в системе обеспечения продовольствием населения мегаполиса: Дис. ... канд.э.н. / Е.А. Дмитренко. - Новосибирск, 2006. -217с.(217с.)С. 67-72.
9. Колсовский Н. Н. Избранные труды. – Смоленск: Ойкумена, 2006. – 336 с.
10. Стакнев Б.С. Молочнопродуктовый подкомплекс пригородной зоны г. Новосибирска: монография / Б.С. Стакнев. - Новосибирск: РАСХН. Сиб. отд-ние. ГНУ СибНИИЭСХ, 2002. - 64 с.
11. Юрина, Г.И. Роль крупного города в формировании пригородной зоны / Юрина Г.И., Л.А. Юрин // Интерэкспо Гео-Сибирь. – 2015. - №3. – С. 229-232.
12. Тюнен И.Г. Изолированное государство в его отношении к сельскому хозяйству и национальной экономии / И.Г. Тюнен. - М.: Изд. Газеты «Экономическая жизнь», 1926. - 160 с.